

ZAMAXSHARIYNING “AL-MUFASSAL FIN-HAHV” ASARIDA FE’LLARNING YORITILISH PRINSIPLARI

Otaxonova Dilafruz Adilbek qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 1-bosqich magistranti

ARTICLE INFO.

Kalit soʻzlar:

Az-Zamaxshariy, Al-Mufassal fin-nahv”, “Muqaddamat-ul-adab” asarlari, fe’llar, ism, harf, oʻtgan zamon va hozirgi kelasi zamon fe’llari.

Annotatsiya

Mazkur maqolada Az-Zamaxshariy asarlari, xususan, arab tiliga bagʻishlangan yirik grammatik “Al-Mufassal” asarida fe’llarning tasnifi va bayon qilish usullari koʻrib chiqiladi. Bundan tashqari “Al-Mufassal” asarida fe’llar bobida fe’llarning barcha turlari koʻrsatiladi va Az-Zamaxshariyning fe’llarni, umuman asarni yozishdagi usuli (prinsipi) haqida ayrim mulohazalar yuritiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yaratilgan shart-sharoitlar natijasida koʻplab Oʻrta Osiyolik olimlarining asarlari oʻrganilmoqda va ularning asarlari boʻyicha turli xil tadqiqotlar va izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotimizning maqsadi ham ikki buyuk arabshunos olimlar - az – Zamaxshariy va Sibaveyhining “Al-Mufassal” va “Al-Kitob” asarlarining umumiy tuzilishi va tasnifini oʻrganish va oʻzaro strukturaviy-qiyosiy tahlil olib borishdir.

Yaqin sharqda «Ustod ul-arab va-l ajam» nomi bilan mashxur boʻlgan Abul Qosim Mahmud ibn Umar az – Zamaxshariy Oʻrta Osiyodagi eng mashxur olimlardan biri hisoblangan. U Xorazmda tugʻilib katta boʻlgan. Shu sababdan ham u «Faxru Xvarazm» (Xorazm faxri)¹ nomi bilan ulugʻlangan.

Buyuk alloma avlodlar uchun ulkan boy ilmiy meros qoldirdi. U tilshunoslik, lugʻatshunoslik, joʻgʻrofiya, adabiyot, aruz, tafsir, hadis, fiqh va qiroat ilmiga oid 50 dan ortiq asar yaratdi, koʻplab sheʼrlar yozdi.

Arab tilshunosligi (filologiyasi) yoʻnalishida ham bir qator asarlar yaratdi. «Muqaddimat ul-adab» va «Al-Mufassal», «Asos al-balogʻa» kabi asarlari shular jumlasidandir.

Zamaxshariy arab tili nahvi olamida oʻchmas va takrorlanmas iz qoldirgan. Bu uning nafaqat Oʻrta osiyolik arabshunoslar uchun, balki butun arab diyori uchun haligacha dasturul-amal boʻlib kelayotgan, arab grammatikasi, morfologiyasi va sintaksisiga bagʻishlangan oʻzining yirik asari «Al-Mufassal fin-nahv» asarining yozishidir.

“Al-Mufassal” asari bir yarim yil ichida, 1121 yil Makkada yozilgan.

“Al-Mufassal” Sharqda va Gʻarbda arab tili va grammatikasini batafsil oʻrgatuvchi yirik asar sifatida maʼlum. Arab tili grammatikasiga bagʻishlangan “Al-Mufassal” kitobi ahamiyatiga koʻra, arab olimi Sibaveyxining “Al-Kitob” asaridan soʻng ikkinchi oʻrinni egallaydi, deb hisoblanadi. Bu Az-

¹ <https://www.wikipedia.org>

Zamaxshariy asari o'z vaqtida qanchalik qadrlanganligini ko'rsatadi.

Al-Mufassal asari dastlabki bobi "tamhid" (تمهيد) dan, ya'ni kirish qismidan boshlanadi. Kitobning bu bobida Zamaxshariyning hayoti, yozgan asarlari, "Al-Mufassal" asari haqida umumiy ma'lumotlar, kitobning ko'chirma nusxalari so'z va kalom ilmi ma'nolari kabi boblar keltiriladi.

Asarning asosiy qismi to'rt bobdan tashkil topgan. Birinchi qism arab tilidagi "Ism" (اسم) so'z turkimiga bag'ishlanadi. Bu bobda ismga xos barcha qoidalar aks etgan

Asarning ikkinchi qismi arab tilidagi eng katta so'z turkumi bo'lgan "fe'l" (فعل) ya'ni fe'llar va ularning tasnifiga bag'ishlangan. Bu bobda fe'llarga oid barcha qoidalar ularning uchta zamonda kelishi, ularning ifodalanishi, o'timli va o'timsiz fe'llar, uch o'zakli va to'rt o'zakli fe'llar, ularning hosila boblari batafsil keltirib o'tilgan.

"Al-Mufassal" asarining uchinchi bobi "Harf" so'z turkumiga (حرف²) bag'ishlanadi. Arab tilida "harf" so'z turkumi nafaqat hurufu jarlardan(ko'makchilardan), balki bog'lama va yuklamalardan ham iboratdir. Bu xususiyati bilan "harf" so'z turkumi o'zbek tilidagi "yordamchi so'z turkumi"ga o'xshab ketadi. Zamaxshariyning asarida "Harf" so'z turkumi ham keng bayon qilingan va ko'plab misollar keltirilgan.

"Al-Mufassal" asarining o'ziga xos va boshga arab grammatikasiga bag'ishlangan asarlardan asosiy farqlaridan biri bu asarning to'rtinchi bobi sifatida fonetik qoidalarning keltirilishidir. Bu bobda Zamaxshariy fonetika (talaffuz)ning o'ziga xos xususiyatlari, xususan idg'omning turlari, vaqf(to'xtash)ning bir qator qoidalari keng yoritiladi.

Zamaxshariyning "Al-Mufassal" asari 1121 yilda, Bundan qarib ming yil oldin yozilgan bo'lsada haligacha arabshunos olimlarga dasturul amal bo'lib kelmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri shuki, biror arabshunos olim Zamaxshariydan oldin arab tili grammatikasini bir tizimga solib chiqmagan. Arab tilidagi so'zlarni asosiy uchta katta so'z turkumiga ajratib, ularning har birini alohida bob qilib tasniflab, arab tili grammatikasini bir tizimga slogan olim ham Az-Zamaxshariy hisoblanadi. Uning "Al-Mufassal" asari esa ana shunday arab grammatikasini tizimlashtirilishini o'z ichiga olgan ilmiy manbadir.

Ushbu ilmiy maqolamizda "Al-Mufassal" asaridagi fe'llarning tadqiqi asosiy o'rinda bo'lib, bu maqolada fe'llar, ularning xususiyatlari toliq yoritib beriladi.

Az-Zamaxshariy o'zining "Al-mufassal fin-nahv" Grammatik asari orqali ko'plab bahs-munozaraga sabab bo'luvchi masalalarni bartaraf etdi, ya'ni boshqacha qilib aytganda "Al-mufassal fin-nahv" o'z zamonining ayniqsa o'z sohasining "shedevri" deya tan olindi. Chindan ham nafaqat Movarounnahr, balki arab dunyosi ham haligacha bunday mukammal va bir tizimga solingan arab grammatikasiga bag'ishlangan asarni ko'rmagan edi. Az-Zamaxshariy o'ziga xos va takrorlanmas uslubi asarning har bir jabhasida sezilib turadi. Az-Zamaxshariy boshqa Grammatik asar yozgan mualliflardan asosiy ajralib turadigan juhati shuki, muallif arab tilidagi shu paytgacha biror bir tizimga solinmagan, guruhlanmagan arab tili grammatikasini bir tizimga solib, arab tilidagi barcha so'zlarni uchta katta guruhga ajratdi(ism, fe'l, harf).

"Al-Mufassal" asarining yana bir o'ziga xos jihati shundaki bu asarda boshqa Grammatik asarlardan farqli o'laroq harflar tovushi va talaffuzi(fonetika) ham alohida bob qilib ajralib chiqqan va unda har bir tovush va uning talaffuzi, harflar va uning maxrajlari alohida tasvirlangan. "Al-Mufassal" asarining yozilishiga qadar esa fonetika alohida o'rganilar va u grammatikaning bir qismi sifatida o'rganilmas edi. Masalan, Ibn Sinoning fonetikaga bag'ishlangan asari bo'lib, bu asarda arab harflarining talaffuzi tabobat ilmi bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi. Masalan, "ayn" hamda bo'g'izdan chiqadigan "ha"

² " المفصل في علوم العربية " الزمخشري

harfi insonning nafas yo'llari kasalliklarini tuzatishda davo sifatida keltiriladi, ya'ni shu harflarni talaffuz qilgan insonlarda nafas yo'li kasalliklariga duchor bo'lishi nisbatan kamroq ekanligi ta'kidlanadi.

Az-Zamaxshariy "Al-mufassal fin-nahv" asarida so'z turkumlarini uchta katta guruhga ajratadi. bular : ism, fe'l, harf. Zamaxshariy ism so'z turkumini 12 faslga, fe'l so'z turkumini 10 faslga, ism so'z turkumini esa 23 faslga bo'lgan.

Fe'llar bobi – باب الفعل

"Al-Mufassal fin-nahv" asarining ikkinchi bobi باب الفعل "babul-fe'li" "Fe'l bobi" deb nomlangan. Bu fe'l bobi to'liq fe'llar va ularning xususiyatlariga bag'ishlangan. Bu bob fe'l so'z turkumiga ta'rif berish bilan boshlangan:

Mazkur bobdan quyidagi fe'l ko'rinishlari o'rin olgan:

1-fasl - الماضي – al-madi – "O'tgan zamon fe'li" deb nomlangan. Bu bobda o'tgan zamon fe'llarining uch o'zakli va to'rt o'zakli bolishini, fe'llar sulosiy mazid va sulosiy mujarradga (uch o'zakli fe'llarning hosila boblari) bo'linishini hamda ularning shaxs-sonda tuslanib birikma olmoshlari olishini muallif o'z asarida bayon etadi

2- faslda المضارع – al-mudari - "Hozirgi- kelasi zamon fe'li" bayon qilingan. Bu bobda hozirgi-kelasi zamon fe'llarining uch o'zakli va to'rt o'zakli bolishini, fe'llar sulosiy mazid va sulosiy mujarradga (uch o'zakli fe'llarning hosila boblari) bo'linishini, hamda hozirgi zamonning asosiy belgisi o'tgan zamon fe'lining oldiga "ya" qo'shimchasi qoshilishidadir deya muallif hozirgi zamoni ifodalagan bo'lsa, kelasi zamoni ifodalash uchun hozirgi zamon shaklining oldiga "sa" hamda "savfa" yuklamalarining qoyilishi kifoyadir. Bunda "sa" yuklamasi yaqin kelajakni bildirsa, "savfa" yuklamasi uzoq kelajakni bildiradi.

3- faslda الامر - al-amru – deb nomlangan uchinchi faslda buyruq mayli izohlangan. Fe'lining bu shakli hozirgi kelasi zamon fe'lining oxirini sukunlash va oldidagi "ya" qo'shimchasini olib tashlab, o'rta o'zak harfiga moslab vaslali hamza qo'yish orqali hosil qilinadi.

4- fasl المتعدى و غير المتعدى al-mutaaddi va g'ayru-l- mutaaddi – "O'timli va o'timsiz fe'llar". Ushbu mavzu o'z navbatida yana ikki guruhga bo'lib bayon qilingan::

a) المتعدى al-mutaaddi – "O'timli fe'llar"

b) غير المتعدى va g'ayru – l mutaaddi "O'timsiz fe'llar"

Asarda o'timli fe'llar deb o'zidan keyin vositasiz to'ldiruvchini talab qilidigan fe'llarga aytiladi deya izoh berilgan. O'timsiz fe'llar esa o'zidan keyin vositali to'ldiruvchini talab qiladigan fe'llardir.

5- fasl المبني للمفعول - al-mabni li-l-mafuli - "Majhul darajadagi fe'llar" deb nomlangan. Majhul darajadagi fe'llar .. qolipida hosil qilinib ish harakatning noma'lumligini, ya'ni kumdir tomonidan bajarilganligini bildiradi.

6- fasl أفعال القلوب - afalu-l- qulubi - O'ylash, hisoblash ma'nosidagi fe'llar" deb atalgan. Muallif bunday fe'llarning 7tasini sanab o'tadi. Ular: ظن - zonna, حسب - hasaba, خلا - xola, زعم - zama, علم - a'lima, وجد - vajada, رأى - roa.

7-fasl أفعال الناقصة - af'alu-n-naqisati - "Yordamchi fe'llar" deb nomlanadi. Ushbu faslda muallif كان - kana, صار - sora, أصبح - asbaha, ظل - zolla, بات - bata, زال - zala, ما برح - bariha, ما فتئ - ma fatia, مما أنفك - ma anfakka, مما دام - ma dama va ليس - laysa fe'llarinini batafsil misollar yordamida izohlangan.

8 -fasl – أفعال المقاربة – af'alu-l- muqarobati – "Ish harakatning yaqinligini bildiruvchi fe'llar" faslida عسى - asa, كاد - kada, أوشك - avshaka va قرب - qoruba fe'llari haqida ma'lumotlar berilgan.

9-fasl فعلا المدح والذم **fila-l- madhi va-z-zammi** – “Olqish va qarg‘ishni ifodalovchi ikki fe’l”. Ushbu faslda نعم – ni‘ma va بئس bi’sa, حبذا - habbaza va ساء -sa’a – fe’llari izohlangan.

10- fasl فعلا التعجب – **fi’la –t-taajjubi** – **Taajjubni ifodalovchi ikki fe’l**”. Unda bunday fe’llar ما أفعل - ma af’ala va أفعل ب - afil bi – vaznidan hosil bo‘lishi bayon qilingan³.

Asarning fe’llar bobi uning birinchi – ismlar qismini mantiqan to‘ldiradi va boyitadi.

Al-Mufasssal asarida fe’l bobidan so‘ng harf so‘z turkumi bobi va fonetika bobi keltiriladi. Yuqorida ko‘rib turganimizdek Az-Zamaxshariy fe’llar bobini o‘z asarida yoritir ekan dastavval fe’llarni Grammatik va ma’no xususiyatiga ko‘ra guruhlariga ajratib o‘rganish va o‘rgatish yanada soda va qulay shakl ekanligiga yana bir bor guvoh bo‘lamiz. Darhaqiqat , Al-Mufasssal asarining tili boshqa ungacha yozilgan grammatik asarlarga qaraganda sodda va o‘quvchiga ham chunarlidir. Buning asosiy belgisi sifatida esa har bir bobning bir tizimga solinib guruhlariga ajratilganligi hamda har bir guruhdagi terminlarning barchasi izohlanganligidan deb tushinish mumkin.

Mahmud Zamaxshariy qalamiga mansub mashxur yana bir nodir asarlardan biri bu “Muqaddamatu-l-adab” asaridir. Bu asar ham “Al-mufasssal” asaridan keyingi o‘rinda turuvchi ilmiy Grammatik hamda lug‘atga oid asarlardan biri hisoblanadi.

Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asari murakkab tuzilishga ega bo‘lib, quyidagi qismlardan iborat: muqaddima, ismlar, fe’llar, harflar, ismlarning turlanishi, fe’llarning tuslanishi.

“Muqaddamatu-l-adab” fanimizda lug‘at nomi bilan ham mashxur, chunki asarning ismlar, fe’llar, qismlari lug‘at tarzida tuzilgan va qolgan qismlarga nisbatan hajman katta bo‘lgan.

Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asarini ilk bor ilmiy tarafdin talqin etgan olim Islomov Zohidjondir. Ubu asarni o‘rganar ekan o‘zining katta ilmiy dissertatsiyalarini e’lon qildi, bular:

1. “Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asarining qo‘lyozma manbalari va arabcha-turkiy fe’llar so‘zligining yig‘ma ilmiy-tanqidiy matni”

2. “Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asaridagi turkiy fe’llar tahlili” nomli dissertatsiyalaridir.

Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamatu-l-adab” asarining qo‘lyozma manbalari va arabcha-turkiy fe’llar so‘zligining yig‘ma ilmiy-tanqidiy matni” dissertatsiyasining I bobi 1.3 hamda 1.6 paragraflari arabiy fe’llarga bag‘ishlangan. Mazkur asarda paragrafning har bir qismida ma’lum bir qolipdagi fellar keltirilgan va aynan shu qolipdagi fe’llarga oid tog‘ri fe’llar va notog‘ri fe’llar keltirilgan. Masalan fe’lga bag‘ishlangan bobning avvalgi qismi quyidagicha keltiriladi:

I bobning 1.3 paragrafi قسم الافعال qismu-l-af’al “fe’llar qismi” deb nomlangan. Bu bob فَعْلٌ يَفْعَلُ فِعْلٌ – fa’ala, yaf’alu, fe’lan qolipidagi birinchi bob fe’llari kiritilgan. Bu bo‘limga 464 to‘gri fe’llar kiritilgan⁴

Bundan ko‘rishimiz mumkinki, Mahmud Zamaxshariyning grammatik asarlarida fe’llar va unga oid masalalar keng yoritilgan. “Al-Mufasssal” asarida fe’llar grammatik-ilmiy jihatdan talqin qilingan bo‘lsa, “Muqaddamatu-l-adab” asarida esa fe’llarning asarda qay tarzda keltirilganligi, fe’llarning qanday turlari qo‘llanilganligi va ularning statistikasi keltiriladi va arabiy fe’llar turkiy fe’llar bilan qiyoslanib o‘rganiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yxati:

1. "المفصل في علوم العربية " الزمخشري
2. Звегинцев В. А. История арабского языкознания. М., 1958

³ M. Nosirova “Unmuzaj fin-nahv” dissertatsiyasi

⁴ Z. Islomov “Muqaddamatu-l-adab” asarining qo‘lyozma manbalari va arabcha-turkiy fe’llar so‘zligining yig‘ma ilmiy-tanqidiy matni” dissertatsiyasi 45-46b

Ilmiy Manbalar:

1. Z.Islomov “Muqaddamatu-l-adab”asarining qo‘lyozma manbalari va arabcha-turkiy fe’llar so‘zligining yig‘ma ilmiy-tanqidiy matni” dissertatsiyasi
2. M. Nosirova “Unmuzaj fin-nahv” dissertatsiyasi

Internet Manbalari:

1. <https://hozir.org/umumiy>
2. <https://www.wikipedia.org>